



# Distinctive aspects of collegial and individual review of draft laws in the implementation of the right of legislative initiative by the Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan

Lazizbek MADUMAROV<sup>1</sup>

Institute of Parliamentary Research

## ARTICLE INFO

### Article history:

Received May 2025  
Received in revised form  
15 June 2025  
Accepted 25 June 2025  
Available online  
15 July 2025

### Keywords:

collegial review,  
individual,  
legal expertise,  
legislative process,  
legal reforms,  
regulatory legal acts.

## ABSTRACT

This article analyzes the practical mechanisms for exercising the right of legislative initiative of the Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan. In particular, the peculiarities of the process of collegial and individual consideration of draft laws, their advantages and disadvantages are highlighted. Collegial review provides a deeper analysis of legal acts in terms of legal expertise, consistency, and systematicity, while individual review can be effective in terms of efficiency and initiative.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss6/S-pp43-46>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

# O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishida qonun loyihalarini kollegial va yakka tartibda ko'rib chiqilishining o'ziga xos jihatlari

## ANNOTATSIYA

### Kalit so'zlar:

kollegial ko'rib chiqish,  
yakka tartib,  
huquqiy ekspertiza,  
qonunchilik jarayoni,  
huquqiy islohotlar,  
normativ-huquqiy hujjatlar.

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishidagi amaliy mexanizmlar tahlil qilinadi. Xususan, qonun loyihalarining kollegial va yakka tartibda ko'rib chiqilishi jarayonidagi o'ziga xosliklar, ularning afzalliklari va kamchiliklari yoritiladi. Kollegial ko'rib chiqish – huquqiy hujjatlarning huquqiy ekspertizasi, muvofiqlik va tizimlilik jihatidan chuqurroq tahlil qilinishini ta'minlasa, yakka tartibda ko'rib chiqish – tezkorlik va tashabbuskorlik jihatidan samarali bo'lishi mumkin.

<sup>1</sup> Independent Researcher, Institute of Parliamentary Research.

# Особенности коллегиального и индивидуального рассмотрения законопроектов при осуществлении Генеральным прокурором Республики Узбекистан права законодательной инициативы

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

коллегиальное рассмотрение, индивидуальное рассмотрение, правовая экспертиза, законодательный процесс, правовые реформы, нормативно-правовые акты.

В данной статье анализируются практические механизмы реализации Генеральным прокурором Республики Узбекистан права законодательной инициативы. В частности, освещаются особенности процесса коллегиального и индивидуального рассмотрения законопроектов, их преимущества и недостатки. Коллегиальное рассмотрение обеспечивает более глубокий анализ правовой экспертизы, соответствия и системности правовых документов, а индивидуальное рассмотрение может быть эффективным с точки зрения оперативности и инициативности.

## KIRISH

Qonun ijodqorligi jarayonining muhim bosqichlaridan biri qonunchilik tashabbusi huquqidir. Ma'lumki, davlatning Asosiy qonunida qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlar aniq belgilab beriladi. O'z navbatida, Parlamentning qonun ijodkorligi faoliyatida aynan Konstitutsiya qayd etilgan subyektlar qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshiradilar.

Qonunchilik tashabbusi huquqi – Konstitutsiyada belgilangan vakolatli organlar, tashkilotlar va shaxslar tomonidan muayyan qonun loyihasini yoki yangi qonun qabul qilish to'g'risida, shuningdek qonunni o'zgartirish yoxud uni bekor qilish to'g'risidagi taklifni Oliy Majlis e'tiboriga taqdim etilishi va parlament tomonidan bu masalani belgilangan tartibda ko'rib chiqish haqida tegishli qaror qabul qilishdir.

Qonunchilik tashabbusi huquqi bir so'z bilan aytganda, qonun loyihasini tayyorlash va Oliy Majlisning Qonunchilik palatasiga kiritish kabi oddiy faoliyatdek ko'rinishi mumkin. Ammo bu vakolatni amalga oshirishda Qonun bilan belgilab qo'yilgan bir nechta bosqichlardan iborat murakkab jarayonni ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining 11.10.2006-yildagi "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonuni bilan qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlarini o'zlarining konstitutsiyaviy vakolatlarini qanday tartibda amalga oshirishi belgilab qo'yilgan.

Amaldagi qonunchilikka ko'ra, qonunchilik tashabbusi huquqi subyektlari dastlab qonun loyihalarini tayyorlashi, qonun loyihalarining ekspertizasini o'tkazishi so'ngra qonunchilik palatasiga kiritishi mumkin. Mana shu uch bosqichni qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish bosqichlari deb qarash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasida qonunchilik tashabbusi huquqi subyektining qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi qaror qabul qilishi belgilangan.

Unga ko'ra, qonun loyihasi tegishincha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlisida, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Plenumida muhokama etilishi va uni Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilishi belgilangan [1].

### **METODOLOGIYA**

Tadqiqot jarayonida tahliliy, taqqoslama-huquqiy, sistemali va empirik yondashuvlardan foydalanildi. Tahliliy usul orqali O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish tartibi, ushbu jarayondagi kollegial va yakka tartibda ko'rib chiqish amaliyoti huquqiy manbalar asosida tahlil qilindi. Taqqoslama-huquqiy yondashuv orqali O'zbekiston qonunchiligi xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, qonun loyihalarini ishlab chiqishda prokuratura organlarining ishtirok shakllari o'xshash va farqli jihatlar nuqtai nazaridan baholandi.

Sistemali yondashuv qonunchilik tashabbusi huquqining prokuratura vakolatlari tizimidagi o'rnini, uning boshqa davlat organlari bilan o'zaro aloqasini aniqlashga xizmat qildi. Empirik yondashuv asosida esa amaliyotda mavjud bo'lgan qonun loyihalarini ishlab chiqish va ko'rib chiqish holatlari, ularning kollegial yoki yakka tartibda amalga oshirilgan misollari o'rganildi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Bu holat qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi davlat hokimiyatining oliy vakillik organi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish masalasini kollegial tartibda hal qilishi belgilangan [2].

Shuningdek, Qonunning 26-moddasi 2-qismida Qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qonunchilik palatasi deputati va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi belgilangan.

Mazkur holatda amaliyotda aksariyat hollarda qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish masalasida Bosh prokurorning qarori qabul qilinmasligini ko'ramiz. Ya'ni, Bosh prokuror o'zining qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishda qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish masalasida qaror qabul qilmaydi. Aksincha, qonunda nazarda tutilgan barcha hujjatlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirib, aloqa xati orqali Qonunchilik palatasiga kiritilganligini ko'rishimiz [3].

O'z navbatida, Bosh prokurorning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishiga doir tartiblarni belgilab beruvchi Nizom yoki Reglament mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori normativ-huquqiy tusga ega bo'lmagan qarorlar qabul qiladi. Shuni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasi talablaridan kelib chiqib, Bosh prokurori o'zining qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish jarayonida qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish masalasida qaror qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish maqqsadga muvofiq [4].

Shuningdek, qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti hisoblangan Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi qonun loyihasini

Qonunchilik palatasiga kiritish masalasini kollegial tartibda hal qilishini inobatga olgan holda, Bosh prokurorning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishida bu masalani kollegial tartibda ko'rib chiqish amaliyotini joriy qilish lozim [5].

Bunda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'zining qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirib, qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritishidan avval qonun loyihasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi Hay'ati majlisida ko'rib chiqilib, Hay'at qarori bilan tasdiqlanganidan so'ng Bosh prokuror tomonidan Qonunchilik palatasiga kiritilishi maqsadga muvofiq.

### **XULOSA**

O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasining 2-qismida keltirib o'tilgan qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish to'g'risidagi qarorni yakka tartibda qabul qiluvchi subyektlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Qonunchilik palatasi deputati bevosita xalq tomonidan saylangan, oliy davlat vakillik organi hisoblanadi.

O'z navbatida, qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish masalasini kollegial tartibda hal qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sudi ma'lum muddatga tayinlanuvchi davlat hokimiyati organlari hisoblanadi.

Shuni inobatga olganda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori ma'lum bir muddatga tayinlangan davlat organi rahbari sifatida garchi, qonunchilik tashabbusi huquqini yakka tartibda amalga oshirsada, amaldagi qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqib, qonun loyihasini Qonunchilik palatasiga kiritish masalasini kollegial tartibda ko'rib chiqib, qaror qabul qilish amaliyotini joriy qilish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/3107036>
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. [https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144)
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>
4. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. [lex.uz.uz](https://lex.uz.uz).
5. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://constitution.uz/uz>